

## Saxovat va ko'mak amallarning ko'lami kengayib borayapti



### Saxovat va ko'mak amallarning ko'lami kengayib borayapti

**Xalqimizda “Yaxshilik qil, suvga sol” degan naql bor. Ya’ni, qilingan har bir yaxshi ish va ezgu amal chin dildan, samimiylik bilan amalga oshirilishi lozim. Qo’yida oramizdagi yaxshi insonlar haqida so’z yuritmoqchimiz.**

Devayron mahalla fuqarolar yig’ini Suxning eng chiroyli va xushmanzara qishloqlaridan. Purviqor tog’lar orasida joylashgan ushbu jannatmakon go’shada g’ururi tog’ddek yuksak saxovatpesha insonlar, ko’ngli va qo’li ochiq tadbirkorlar umrguzaronlik qilishadi. Asalbek Murtazbekov ana shunday insonlardan biri.





---

1977 yildan beri asalarichilik bilan shug'ullanadi. Har yili sidqidildan qilgan mehnat va say-harakati tufayli 7-8 tonnagacha toza tog' asali olishga muvaffaq bo'ladi. Mamlakatimizda tadbirkorlikka keng yo'l va imkoniyatlar eshigi ochilganligi bois, 1996 yildan buyon qahramonimiz xususiy oilaviy tadbirkorlik va bog'dorchilik jo'jaligini boshqarib keladi. Tadbirkor mahalldagi umumiy o'rta ta'lim maktabi va maktabgacha ta'lim tashkilotini homiylikka olgan. Har yili, bayram va tarixiy tadbirlarda o'zining beg'araz yordamini ushbu ma'rifat maskanlaridan ayamaydi. Hatto, 17-sonli UO'T maktabida tahsil oladigan a'lochi va faol o'quvchilar tadbirkor tashabbusi bilan ta'sis etilgan stipendiyalarni ham olishga ham muvaffaq bo'lishgan.



Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati doirasida tadbirkorimiz tomonidan yana bir zezgu ish amalga oshirildi. O'nlab kam ta'minlangan, ehtiyojmand oilalarga asalari uyalari yarim narxida tarqatib berildi. Kecha bevosita tuman hokimi Farrux Usarov ishtirokida yana bitta xonadon bepul asalari uyasiga ega bo'ldi. "Avvalo Yurtboshimizga rahmat. Chunki barcha saxovatpesha insonlarni shu ezgu yo'lga chorladilar. Asalbek-akadan minnatdormiz. Rahmatli turmush o'rtog'im ham asalarichilikka qiziqardi. Endi o'g'lim bilan ushbu sohani rivojlantirib, manfaatdor bo'lishga harakat qilamiz" - deya duoga qo'l ochadi Volidaxon Azizova. "Ikki yuz nafarga yaqin shogirdim bor. Maqsadim asalarichilikni tumanda rivojlantirish. Agar odamlar bizing ishimizdan, kasbimizdan bahramand bo'lishsa, men o'zimni baxtiyor inson deb bilaman" - deydi Asalbek-aka. Tuman hokimi taklifi va tashabbusi bilan tumanda asalarichilik maktabi tashkil etiladigan bo'ldi. "Insonga naf keltirish oliy baxt. Shu baxt barchamizga nasib etsin" - deydi tadbirkor.



Bugun Devayron mahalla fuqarolar yig'ining bir necha xonadonlarga shuningdek, boshlangan ezgu harakat doirasida oziq-ovqat mahsulotlari ham yetkazib berildi. Mahallada yashovchi fuqaro Sharofatxon-aya Xolova xonadoniga quyon taqdim etildi. Albatta, qilinayotgan barcha xayrli amallarda bir ezgu maqsad mujassam: odamlarimizda mehnatga, harakat va intilishga bo'lgan shavqni uyg'otish. Zero, "Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroyli" deb bejizga aytilmagan.



